



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TURLI XIL KO'RINISHDAGI MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH VA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN METODLARNING AHAMIYATI

¹**Sunnatullo Do'stov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi,

²**Ruxshona Egamberdiyeva**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi,

³**Saodat Xushboqova**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi,

⁴**Shohista Ubaydullayeva**

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

O'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari karantini ta'lim yo'nalishi,
1-bosqich talabasi.

ARTICLE INFO

Received: 25th February 2023

Accepted: 06th March 2023

Online: 07th March 2023

KEY WORDS

Matematika, sodda masala, komponent, arifmetik amallar; o'qitish metodikasi, arifmetik material, ilmiy-tadqiqot metodi, kuzatish metodi, tajriba metodi.

ABSTRACT

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga masala yechishga o'rgatishning muhimligi shundan iboratki, o'qituvchi o'zining asosiy e'tiborini matnli masalalar mazmunini matematika tiliga ko'chirishga qaratmog'i lozim. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikalari, arifmetik material kursning asosiy mazmuni, o'qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalari haqida to'liq bayon etilgan.

Kirish:

Ma'lumki boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darsligida juda ham ko'p uchraydigan masalalar va ularning yechimlarini topish haqidagi ma'lumotlarni biz 1-sinfdayoq ularga o'rgatib, ulardagi bilish va fikrlash qobiliyatini o'stirib borishimiz juda ham muhimdir. Masalalar yechimidagi hisoblash ishlari sonli masalalarni yechish ko'nikmalarini takomillashtirish mashq qilishga qaraganda kamroq vaqtni talab qiladi. Masalan, biz o'quvchilarga masalaning yechimlari haqida to'liq tushuncha berganimizdan so'ng, bu yechgan masalamizning o'quvchi tushunib yecha olishi uchun biz masalaning eng ratsional qismini aniqlab va shu usulda masala yechishga ko'proq o'quvchini jalb qilishimiz kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Matematik masalalar sodda va tarkibli masalalarga ajratiladi. Sodda masalalar bitta amal bilan yechish mumkin bo'lgan masalalar jumlasiga kiritiladi. Sodda masalalarning muhim turlarini quyidagicha taqsimlash boshlang'ich maktablarida foydalanish uchun qulay sanaladi:



1. Arifmetik amallar mazmunini ochishga doir masalalar yig'indini qoldiqni topishga doir masalalar, bir xil qo'shiluvchilar yig'indisini topishga doir masalalar, bo'lishga doir masalalar.

2. Amalning noma'lum komponentlarini topishga doir masalalar

3. Bir necha birlik ortiq munosabati bilan bog'liq masalalar sonni bir nechta birlik orttirish yoki kamaytirishga doir bevosita ifodalangan masalalar, sonlarni ayirmali taqqoslashga doir masalalar.

4. Kattaliklarning proportsional bog'lanishlari turidagi sodda masalalar o'quvchi uchun quyidagi maqsadlarda kerak bo'ladi:

1) Matematik masalalarning strukturasi bilan tanishish, ya'ni uning sharti berilganlari savoli izlanayotgan miqdorlari bilan masalaning yechimi, savoli, javobi, amal bilan shuningdek, va hokazo atamaları bilan tanishish

2) Bolalarda masala savoliga javob berish uchun bajarish kerak bo'lgan amallarni tanlashga ongli munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

3) Satrga kirgan kattaliklar o'rtasidagi elementar funksional munosabatlarni birinchi marta ko'rish amallar komponentlar orasidagi bog'lanishlarni. tushuntirish.

4) Turli xil matematik mashqlarni hayot bilan bog'lash bu bolalarni fanga bo'lgan qiziqishlarni oshirishga yordam beradi, malakalarini egallash jarayonini jonlantiradi.

5) O'quvchini har xil tarkibli masalalar yechishga tayyorlash, bola ongiga matematika asoslarini joylash, uning bilim doirasini kengaytirish va tartibga solish, iroda va talabchanlikni tarbiyalash.

Natijalar:

Matematikani o'qitish sistemasida sodda masalalar juda muhim rol o'ynaydi. Sodda masalalarni yechish orqali matematika boshlang'ich kursining markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan - arifmetik amallar haqidagi tushuncha va boshqa bir qator tushunchalar shakllanadi. Sodda masalalarni yecha olish o'quvi o'quvchilarning murakkab masalalarni yechish o'quvini egallashlarida tayyorgarlik bosqichi bo'ladi, chunki murakkab. masalalarni yechish qator sodda masalalarni yechishga keltiriladi. Sodda masalalarni yechayotganda masala bilan va uning tarkibiy qismlari bilan birinchi bor tanishiladi.

Sodda masalalarni yechish munosabati bilan o'quvchilar masala ustida ishlashning asosiy usullarini egallaydilar. Shu sababli o'qituvchi har bir turdagi sodda masalalar ustida qanday ish olib borishni bilishi juda muhimdir. Shuningdek yig'indini va qoldiqni topishga doir masalalar bolalar duch keladigan dastlabki masalalar bo'lgani uchun bu masalalar ustida ishlash qo'shimcha qiyinchiliklar bilan bog'liq hisoblanadi. Bunda o'quvchilar masala va uning qismlari bilan tanishadilar va masala ustida ishlashning ba'zi umumiy usullarini o'zlashtiradilar. Yig'indi va qoldiqni topishga doir masalalar bir vaqtning o'zida kiritiladi, bundan tashqari, bu masalalarni qarama-qarshi qo'yilganda, ularni yechish o'quvi yaxshiroq shakllanadi. Yig'indi va qoldiqni topishga doir masalalarni yechishga tayyorgarlik bu to'plamlar ustida amallar bajarishdir.

Umumiy elementlari bo'lmagan ikki to'plamni birlashtirish va to'plamning qismini chiqarish. To'plamlarni birlashtirish amali qo'shish amaliga, to'plamning qismini chiqarish esa ayirish amaliga muvofiq kelishini bolalar yaxshi o'zlashtirishlari lozim. Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi. Boshlang'ich kursning asosiy o'zagi natural sonlar va



asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Bundan tashqari, bu kursda geometriya va algebraning asosiy tushunchalari birlashadi.

Muhokama:

O'qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biri. Shunday qilib o'qitish metodlari o'zlashtirish, tarbiyalash va rivojlanish kabi uchta asosiy vazifani bajaradi.

1. Ilmiy-tadqiqot metodlari haqida ma'lumot Pedagogik tarbiyalashga oid ish tajribalarni o'rganmay va umumlashtirmay, pedagogik jarayonini chuqur tadqiq qilmay turib pedagogikani rivojlantirib bo'lmaydi. Zamonaviy ta'lim pedagogikani ilmiy bilishning umumiy metodi bilan qurollantiradi, lekin boshqa fanlar kabi pedagogikaning ham o'ziga xos tadqiqot usullari mavjud. Ilmiy tadqiqot usullari - qonuniy aloqalar, munosabatlar o'rnatish va ilmiy nazariyalarni shakllantirish uchun ilmiy axborot olish usullari.

Kuzatish, tajriba o'tkazish, maktab hujjatlari bilan tanishish, o'rganish, suhbat va so'rovlar o'tkazish, ilmiy-pedagogik tadqiqot usullari. So'nggi paytlarda matematik usullardan, shuningdek, modellashtirish usullaridan foydalanish qayd etildi. Boshlang'ich sinf matematika o'qitish metodlari barcha pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan bir xil usullardan foydalanadi.

2. Kuzatish metodi. Kuzatish metodi - odatdagi sharoitda kuzatish natijalarini tegishli qayd qilish bilan pedagogik jarayonni bevosita maqsadga yo'naltirilgan holda idrok qilishdan iborat. Kuzatish metodidan o'quv-tarbiya ishining u yoki bu sohasidagi ishning qanday borayotganini o'rganish uchun foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatlari haqida majbur qilinmagan tabiiy sharoitda aniq material to'plash imkonini beradi.

3. Tajriba - bu ham kuzatish bo'lib, maxsus tashkil qilingan, tadqiqotchi tomonidan nazorat qilib turiladigan va tizimli ravishda o'zgartirib turiladigan sharoitda o'tkaziladi. Pedagogik tajriba o'qitishning va tarbiyalashning u yoki bu usulining, ko'rsatma - qo'llanmalarining samaradorligini tadqiq qilishda qo'llaniladi.

Tajriba o'tkazishdan oldin tadqiqotchi tadqiq qilinishi kerak bo'lgan masalalarni aniq ifodalab olishi, bunday masalalarni hal qilinishi maktab amaliyotida va pedagogika fani uchun ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Tajriba o'tkazishdan oldin tadqiqotchi o'rganish predmeti bo'lib ish masalaning nazariyasi va tarixi bilan, shuningdek, shu soha bo'yicha amaliy ish tajribasi bilan tanishib chiqadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabda matematika o'qitishni uyushtirishning tarixiy, murakkab, ko'p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli darsdir. O'quvchilarning matematik bilimlarini o'zlashtirishi faqat o'quv ishida to'g'ri metod tanlashga bog'liq bo'lmasdan, balki o'quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog'liqdir.

Masalalarni yechishda o'quvchilar shu ko'rsatilgan topshiriqlarni qat'iy belgilangan tartibda ko'p marta bajarsalar, u holda ularda masala ustida topshiriqlarga muvofiq ravishda ishlash usuli sekin-asta shakllanadi. Bu esa kelgusida bolalar masalalarni mustaqil hal qila olishlariga imkon beradi. Dastlabki tayyor masalalarni yechayotganda bolalar masala va uning yechilishiga doir terminologiyani o'zlashtirishlari ustida ishlashi kerak. Shu sababli ham boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechish usullarini to'g'ri tashkil etish,



undan oqilona foydalanish, masalaning turli shakllarini tashkil etish va unda turli didaktik vositalardan imkon darajasida foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmog'i maqsadga muvofiqdir.

References:

1. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi.-T: "Arnaprint", 2005.
2. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi.-T: "Ilm-Ziyo", 2003.
3. Dustov S.R., Yusupov A.A., Azamkulov A. (2023). "Methodology Of Teaching Mathematics In Primary Grades". Journal of Pharmaceutical Negative Results, 7480-7485.
4. Alixonov S. " Matematika o'qitish metodikasi " Toshkent: "O'qituvchi" 2001.
5. M.E. Jumayev, Z.G'. Tadjiyeva, O. Toshmetova, "Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni metodikasi Toshkent 2005.
6. Jumayev M.E. "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" Toshkent: O'qituvchi, 2004.